



SCIENCE BOX

MAKTABGACHA TA'LIMDA 6-7 YOSHLI BOLALARINI PISIXOLOGOGIK QO'LLAB QUVVATLASH ORQALI IJTIMOIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH

Musratova Zilola Ulug'bekovna

Maktabgacha ta'lif tashkilotlari direktori va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti 1-bochqich tayanch doktoranti

Annotatsiya: Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasini o'r ganilganlik holati va ularga kerak tavsiyalar borasida fikr yuritiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi va ularning o'r ganilganlik sabablari o'r ganilib tahlil qilingan va psixologik muammolar bartaraf etish yo'llari haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: shaxs, psixologiya, maktabgacha yosh, muhit, oila, mahalla, shaxslararo munosabat, motiv, tarbiya.

Respublikamizda mustaqillik yillarda inson shaxsiga nisbatan bo'lgan munosabat keskin o'zgardi. Jamiatning a'zosi bo'lgan har bir shaxs taqdiriga alohida e'tibor qaratila boshlandi. Ayniqsa, inson hayotining kelajagiga tamal toshi qo'yiladigan maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lif-tarbiya berish, pedagogika va psixologiya, ijtimoiy psixologiya va maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi fanlarining dolzarb muammolaridan biriga aylanib borayotganligi shubhasizdir. Zotan, kelajagi buyuk davlatni bunyodga keltirish uchun har qanday davlatning fuqarosi dastlab oilada va so'ngra maktabgacha ta'lif tashkilot mukammal tarbiyalanishi, shaxs sifatida to'laqonli shakllanishi imkoniyatlariiga ega bo'lishi lozim bo'ladi. Bolalarning ijtimoiy hayotga moslashish imkoniyatlarini kengaytirish asosida ularni xar tomonlama rivojlanirish masalalari xorijlik olimlar turli soha vakillari: birmuncha torroq - tarbiyaviy kuch yo'naltirilgan maydoncha, masalan, vatandarvarlikni tarbiyalash (axloqiy tarbiya), badiiy tasavvurlarini shakllantirish (nafosat tarbiyasi) tushuniladi - (Y.U.K. Babanskiy).

Maktabgacha psixologik ta'lif haqidagi yagona fan sifatida ham e'tirof etiladi, bu fan vakillari u yoki bu ta'limi faoliyat bilan shug'ullanadilar (V.V.Krayevskiy).

Korney Ivanovich Chukoviskiy shunday yozgan edi "Menimcha ertakning maqsadi bolada birovning g'am tashvishi uchun qayg'urish o'zganing shodligi uchun xursand bo'lish begona insonning taqdirini xuddi o'ziniki kabi boshdan o'tkazish kabi insoniylikni qanday bo'lmasin tarbiyalashdan iboratdir" T.A. Markova, O.L. Zvereva, E.P. Arnautova, V.P. Dubrova, I.V. Lapitskaya va boshqalar. Maktabgacha yoshdagi bolaning oila bilan bog'liq bo'lgan umidlari, eng avvalo, ota, ona, buvi, bobo, opa-singil va aka-ukalarning cheksiz, cheksiz mehridir. Bolani yaxshi xulq-atvori yoki baholari uchun emas, balki tashqi ko'rinishi yoki fe'l-atvori uchun emas, balki uning shaxsiyatining barcha ijobiy va salbiy ko'rinishlari bilan kim ekanligi seviladi Turli yoshdagi odamlarning tug'ilgandan to umrining oxirigacha psixik rivojlanishi jarayonini, shaxsning shakllanishi va o'zaro munosabatlari qonuniyatlarini o'r ganadi. Bolalar psixologiyasi bola rivojlanishining turli bosqichlarida uning psixikasini o'r ganadi;



SCIENCE BOX

JOURNAL OF INNOVATIONS IN SOCIAL SCIENCES

www.sciencebox.uz

Volume: 03 Issue: 05 / May - 2023

ISSN: 2181-2594

Bolalar psixologiyasida kuzatish metodi bolalar taraqqiyotining sermazmun qirralarini o‘rganish va undan olingen dalillarni kundaliklarga yozib borib o‘rganishdan iboratdir. Bola taraqqiyoti haqidagi birinchi kundalik XIX asrning ikkinchi yarmida Ch.Darvin tomonidan nashr etilgan. Undan so‘ng N.N.Ladigina-Kots, N.A.Menchinskaya, V.S.Muxina va boshqalar bolalar psixik taraqqiyoti yuzasidan izchil ravishda yozib borgan o‘z kundaliklarini nashr etganlar. Ular orasida yosh psixologiyasi alohida ahamiyatga ega. Maktabgacha ta’limda bolalar psixologiyasi psixik rivojlanish, shuningdek, bolalik, o‘smyrlilik, o’spirinlik, yetuklik va qarilik davrida shaxs taraqqiyotining xususiyatlarini o‘rganadi.

Davlat siyosati insonni intellektual va ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan, uzlusiz ta’lim tizimi orqali, har tomonlama barkamol shaxs – fuqaroni shakllantirishni nazarda tutadi. Shu jihatdan qaraganda insonning shaxs sifatida shakllanishida uzlusiz ta’limning boshlang‘ich va joiz bo‘lsa, asosiy bo‘g‘inlaridan biri hisoblangan maktabgacha ta’lim muassasasi muhim o‘rin tutadi. Qolaversa, O‘zbekistonda ko‘plab yangi sohalar qatori aholiga psixologik maslahatlar berish hamda maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlanirishga xizmat qiladigan tadqiqotlarga bo‘lgan muayyan ehtiyoj tobora ko‘proq sezilmoxda. Zero, bunday xizmatlarga ehtiyoj bir tomonidan maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsini rivojlanirishga xizmat qilsa, ikkinchi tomonidan, shu maskanda tarbiyalanayotgan bolalarning ruhiy rivojlanishiga ota-onalar tomonidan ko‘rsatiladigan e’tiborning samarasini belgilaydi. Bolaning psixik jihatdan o‘sishiga o‘zlikni anglash, o‘zini-o‘zi baholash va o‘zaro munosabatlar xususiyatlari muhim hisoblanadi. Bu eng avvalo inson shaxsining psixologik asoslarini shakllantiruvchi, uning emotsiunal-hissiy, intellektual, ijtimoiy-psixologik rivojlanishiga taalluqlidir. Bunda oiladagi munosabatlar, xususan ota-onva farzand o‘rtasidagi munosabatning mohiyati, o‘zaro shaxslararo muloqot katta rol o‘ynaydi. Oiladagi shaxslararo munosabatlar xarakteriga ko‘ra er-xotin o‘rtasidagi munosabatlar, ota-onalarning o‘z farzandlari bilan shaxslararo munosabatlariga bo‘linadi. Biz nikoh juftligi hisoblangan er-xotin hamda farzand tarbiyalayotgan otaonalarning maktabgacha bo‘lgan yoshdagi bolalarning shunday jihat e’tiborimizni qaratdikki, ular aynan shu davrda o‘z qiziqishlari, yetakchi faoliyati bo‘lgan syujetli-rolli o‘yinlardagi harakatlari bilan birgalikda ijtimoiy dunyoning, avvalo, ota-onva oilasidagi rollarga va o‘zaro munosabatlarga e’tiborli bo‘lib, aynan ota-onalikka xos qiliqlarni o‘zlashtirishga kirishadilar. Bola bunda uning oldida ro‘y berayotgan voqeа-hodisalarining kuzatuvchisi va ishtirokchisiga aylanib, bu jarayonlar qanchalik dinamik bo‘lsa, shunchalik faol va qiziquvchan bo‘ladi, ota-onva bola o‘rtasidagi munosabatlarga nisbatan ko‘proq, to‘laroq va turli-tuman axborotlarni oladi, o‘zlashtiradi va fikrlaydi. Bunda Oila bola menini shakllantiruvchi muhim sotsium – ijtimoiy muhitga aylanib, o‘zining ushbu aloqadorligini anglash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yerda shuni qayd etib o‘tish joizki, ijtimoiy psixologlarning fikricha, oiladagi shaxslararo munosabatlar tuzilmasida ota - ona - bola munosabatlari evolyusion jihatdan nisbatan kechki va mazmunan aniqroq hisoblanadi, chunki ular shakllanib bo‘lgan er-xotin munosabatlari asnosida vujudga keladi. Biz shunga ishonch hosil qildikki, aynan nikoh juftligidagi er-xotin munosabatlari bolaning ijtimoiy tasavvurlarida bilvosita ifodalangan ota-onalik munosabatlariga nisbatan moslashuvchan va dinamik bo‘lib, shu sababli bolaning ota-onva munosabatini aks ettirishi uning shaxsida ifodalangan o‘zgarishlarga zamin bo‘ladi. Bunda nafaqat er-xotin-ota-onva o‘rtasidagi munosabatlar va ularning bolaga bo‘lgan munosbati, balki aynan shu munosabatlarning bevosita u bilan muloqotda aks ettirilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha yoshdagi bola rivojlanish jarayonida ajdodlari tomonidan yaratilgan narsa va xodisalar, olam sir-sinoatlari bilan alohida maxsus munosabatga kirishadi. U insoniyat tomonidan qo‘lga kiri-tilgan yutuqlarni faol o‘zlashtirib, egallab boradi. Bolada narsa-xodisalar olami, ular yordamida amalga oshiriladigan xatti-xarakatlar, ona tili va odamlar orasidagi munosabatlarni anglash, ayni zamonda faoliyat motivlarining rivojlanishi, qobiliyatlarning o‘sib borishi kattalarning bevosita yordami asosida amalga oshadi. Bu





SCIENCE BOX

oilada ota-onas, maktabgacha ta'lismu muassasalarida esa tarbiyachilar ko'magida yuz beradi. Asosan mana shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyati kuchaya boshlaydi. Faoliyatdagi mustaqillik, o'z-o'zidan tafakkurdagi mustakillikka asos bo'ladi. Bundan tashqari, maktabgacha yoshdagi 6-7 yoshli bolalarni murakkab xarakatlarni takomillashtirish, elementar gigiyena, madaniy va mehnat malakalarini hosil kilish, nutqini ustirish hamda ijtimoiy axloq va estetik didning dastlabki kurtaklarini yuzaga keltirish davri hamdir.

XULOSA Shuni aytish mumkinki, oilaning zimmasiga ulkan va zarur ijtimoiy missiya yuklangandir. Bola tarbiyasi eng og'ir ijtimoiy vazifa ekanligi ayondir. Ota va onaning shaxsiy va ijobiy namunasi solih va soliha farzandlarning kamolga yetishi uchun garovdir. Ostona hatlab tashqi dunyoga qadam qo'yilganida esa bolaga atrofmuhit va jamoatchilikning ta'siri sezilarli bo'ladi. Ta'lismu muassasalarini va mahallakuy, umuman, ijtimoiy sfera muhiti inson farzandini to hayotining so'ngi daqiqasigacha ta'qib qilib boradi. Shu boisdan, oilaviy munosabatlarda shaxsning umummadaniy dunyoqarashini shakllantirishga erishish, nafaqat shaxsiy hayotda, balki, mamlakatimizda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar va ularning taraqqiyoti jamiyatning ruhiy va ma'naviy takomilida ham muhim o'rinn tutadi.

REFERENCES

1. <https://president.uz/uz> - Узбекистон Республикаси Президентининг расмий веб-сайти.
2. Урунтаева Г.А. Детская психология. - М.: «Академия», 2010. -С. 36.
3. Поддъяков Н.Н. Мышление дошкольника. - М.: «Педагогика», 1977. -С. 222.
4. Фозиев Э. Тафаккур психологияси. - Т.: «Укитувчи», 1990.
5. Каримова В.М., Суннатова Р. Мустакил фикрлаш. - Т.: «Шарқ», 2000.
6. Нишонова З.Т. Мустакил ижодий фикрлаш. - Т.: «Фан», 2004.
7. Тихомиров О.К. Психология мышления. - М.: МГУ, 1984.
8. Венгер Л.А., Венгер А.Л. Домашняя школа мышления (для пятилетних детей). - М.: «Знание», 1984.
9. Выготский Л.С. Воображение и творчество в детском возрасте. - М.: «Просвещение», 1991. 10. Выготский Л.С. Мышление и речь. - М.: «Педагогика», 1982.
10. Olimov Q.T. Pedagogik texnologiyalar. – Т.: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2011
11. N. Abdullaevaning “Maktabgacha ta'limi variativ yondashuv asosida takomillashtirish” Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati . –Toshkent 2019
12. D. A. Abdurahimova “Xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash tizimini takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati . –Toshkent 2020

